

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“AVTOMOBILSOZLIK” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA

T U S H U N T I R I S H X A T I

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: **“Spark” avtomobilining yonilg'i bakini yig'ish texnologik jarayonini o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish**

Bitiruvchi: “Avtomobilsozlik va traktorsozlik” yo'nalishi

4 bosqich 083-11 guruh:

O.Hakimov

Fakultet dekani:

N.Xalilov

Kafedra mudiri:

t.f.n. dots. T.Almataev

Bitiruv malakaviy ishi rahbari:

B.Qayumov

Maslahatchilar:

kat.o'qt. M.Abdullaev

dots. A.Abduraxmonov

Andijon – 2015 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“AVTOMOBILSOZLIK” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO'YICHA

T O P S H I R I Q

Hakimov Olimjon

(talabaning familiyasi, ismi-sharfi)

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: **“Spark” avtomobilining yonilg'i bakini yig'ish texnologik jarayonini o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish**

Institut bo'yicha 2014 yil «_26_»_dekabr_dagi _194_-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ma'lumotlar: O'zbekiston Respublikasining transport vositalarini ishlab chiqarish, undan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq qonun va qarorlari, ilmiy-texnik fan adabiyotlari, internet ma'lumotlari.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

1) Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzalari, logistik tizimni rivojlantirishga bog'liq xukumat qarorlari, fan yangiliklari.

2) Mavzuning dolzarbligi. “Spark” avtomobilining yonilg'i bakini yig'ish texnologik jarayonini o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqishning bugungi kundagi dolzarbligi.

3) Adabiyotlar sharxi. Mavzu bo'yicha ilmiy-texnik adabiyotlar, gazeta, jurnal va internetdan olingan ma'lumotlarni taxlili.

4) Asosiy qism. Yonilg'i baklarining yig'ish jarayoni haqida umumiy ma'lumotlar.

5) Texnologik qism. “Spark” avtomobilining yonilg'i bakini yig'ish texnologik jarayonini o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish.

6) Iqtisodiy qism. “Spark” avtomobilining yonilg'i bakini yig'ish texnologik jarayonini o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqishni iqtisodiyligini asoslash.

7) Xayotiy faoliyati xavfsizligi qismi. Yonilg'i bakini yig'ishdagi mehnat muxofazasi.

8) Xulosa va takliflar. Mavzu bo'yicha umumiy, yakuniy xulosa va takliflar beriladi.

9) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati. Mavzuni tayyorlashda foydalanilgan adabiyotlar, gazeta, jurnal va internet manzillar ro'yhati.

10) Ilovalar. Mavzu bo'yicha olingan xujjatlar, jadvallar, rasmlar, internet, gazeta va jurnal ma'lumotlari ilova qilinadi.

4. Bitiruv malakaviy ishining chizmalari ro'yhati:

- 1) Chizma 1. –
- 2) Chizma 2. –
- 3) Chizma 3. –
- 4) Chizma 4. –

5. Bitiruv malakaviy ishi qismlari bo'yicha maslahatchilar:

No	Bitiruv malakaviy ishining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchi-ning familiyasi
1	Kirish	05.01.2015	17.01.2015		B.Qayumov
2	Mavzuning dolzarbligi	19.01.2015	07.02.2015		B.Qayumov
3	Adabiyotlar sharxi	09.02.2015	21.02.2015		B.Qayumov
4	Asosiy qism	23.02.2015	20.03.2015		B.Qayumov
5	Texnologik qism	23.03.2015	04.04.2015		B.Qayumov
6	Iqtisodiy qism	06.04.2015	18.04.2015		M.Abdullaev
7	Xayotiy faoliyati xavfsizligi	20.04.2015	02.05.2015		A.Abduraxmonov
8	Xulosa va takliflar	04.05.2015	09.05.2015		B.Qayumov
9	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	11.05.2015	16.05.2015		B.Qayumov
10	Ilovalar	18.05.2015	23.05.2015		B.Qayumov
11	1-chizma	23.03.2015	20.04.2015		B.Qayumov
12	2-chizma	06.04.2015	18.04.2015		B.Qayumov
13	3-chizma	20.04.2015	02.05.2015		B.Qayumov
14	4-chizma	04.05.2015	16.05.2015		B.Qayumov

6. Topshiriq berilgan sana 07.01.2015 yil

7. Tugallangan bitiruv malakaviy ishini topshirish sanasi 05.06.2015 yil

Bitiruv malakaviy ishi rahbari _____ B.Qayumov
(imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi _____ O.Hakimov
(imzo)

Kafedra mudiri _____ t.f.n. Almataev T.O.
(imzo)

M U N D A R I J A

1	Kirish.....	5
2	Mavzuning dolzarbligi.....	8
3	Adabiyotlar sharxi.....	11
4	Asosiy qism.....	15
5	Texnologik qism.....	24
6	Iqtisodiy qism.....	37
7	Xayotiy faoliyati xavfsizligi.....	44
8	Xulosa va takliflar.....	50
9	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	52
10	Ilovalar.....	55

1. KIRISH

Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan istiqlolning dastlabki yillarida Asaka shahrida qurilib, 1996 yilning 19 iyulida ishga tushirilgan "UzDEUavto" (hozirgi "GM Uzbekistan") qo'shma korxonasi xalqimiz bunyodkorlik salohiyatining, mamlakatimiz iqtisodiyoti, xususan, sanoat ishlab chiqarishining yorqin timsollaridan biridir.

Istiqlol bergan imkoniyatlar mamlakatimiz iqtisodiyotidagi yutuqlarimizda, shahar - qishloqlarimizning tobora go'zallashib borayotgan qiyofasida, mahobatli bino-yu ko'priklar, ravon yo'llar, yangi bunyod etilgan, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan korxonalarda o'z ifodasini topmoqda.

Karimov I.A. "O'zbekiston jamiyatning demakratlashtirish va yangilash mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida" asarida bo'lajak yosh mutaxassislarga shunday fikr bildiradi. "O'tish davrining va bozor munosabatlari qaror topishining demakratik jamiyat va huquqiy davlat shakllanishining eng murakkab vazifalari xalq etishga qodir bo'lgan yuqori bilimli, kasb tayyorgarligi kuchli kadrlarni tayyorlash bizning butun faoliyatimizning muhim ustivorligi hisoblanadi" [2].

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim istiqbollari va ustivor yo'nalishlarini belgilab olar ekanmiz, biz ichki ehtiyojning o'sishiga alohida e'tibor qaratishimiz kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda bizning yaqin istiqboldan eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni ischin davom ettirish iste'mol talabini kengaytirish maqsadida sohani rivojlantirish, mexanik mehnatga xaq to'lashni yanada oshirish xizmat ko'rsatish sektorini infratizimi va ob'ektivlarini rivojlantirishga transport va kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirishga alohida e'tibor berishdir.

Dunyoda mamlakat ko'p, ularning ko'chalarida harakatlanadigan avtomobillar ham sanoqsiz. Xalqaro avtomobil ishlab chiqaruvchilar tashkiloti - OICA ma'lumotlariga ko'ra, jahonda har yili 70 milliondan ziyod turli rusumdagi

avtotransport vositalari ishlab chiqariladi. Lekin ana shu mashinalarni ishlab chiqaradigan davlatlar ko'p emas - 52 ta. O'zbekiston ulardan biridir. Alohida ta'kidlash joizki, Asakadagi zavod ishga tushishi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotida butunlay yangi avtomobilsozlik tarmog'iga asos solindi.

O'tgan davr xorijiy hamkorlar bilan birgalikda tashkil etilgan noyob avtomobil zavodi jamoasi uchun yuksalish yillari bo'ldi. Buni quyidagi raqamlar ham ko'rsatib turibdi: Zavod 1996 yilda 25 ming, keyingi yili 69 mingta mashina ishlab chiqargan bo'lsa, 2012 yilning olti oyida bu ko'rsatkich 90 ming 320 tani tashkil etdi. Jahondagi mana man degan avtomobil konsern va kompaniyalari xalqaro moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tufayli ishlab chiqarishni keskin kamaytirayotgan bir paytda bu raqamlarning ahamiyati naqadar dolzarbligini tushunish uchun mutaxassis bo'lish shart emas.

Asakada ishlab chiqariladigan mashinalar zamon talablari asosida muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Zavod ishga tushgan dastlabki yillari uning konveyeridan "Tiko", "Damas", "Neksiya" kabi yengil avtomobillar chiqa boshlagan bo'lsa, keyingi yillarda bu yerda tayyorlanayotgan yengil mashinalar safiga yanada mukammallashgan, zamonaviy dizaynga ega "Matiz" va "Lasetti", "Takuma", "Epika" va "Kaptiva" avtomobillari qo'shilgani fikrimizning dalilidir.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi ko'plab korxonalar Asaka zavodi uchun butlovchi materiallar yetkazib beradi. Misol uchun, Farg'onadagi "Avtooyina" qo'shma korxonasi mashinalar uchun oyna tayyorlab berayotgan bo'lsa, shu shahardagi "O'zSozon" qo'shma korxonasida rul kolonkalari va mexanizmlari tayyorlanadi. Jizzaxdagi "O'zEksayd" zavodida "GM Uzbekistan" YoAJ avto zavodiga akkumulyatorlar yetkazib berishni yo'lga qo'yilgan. Shu tariqa mahalliyashtirish dasturi izchil amalga oshirilmoqda. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarilayotgan avtomobillarning tannarxini kamaytirish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash imkonini bermiqda.

2012 yilda O'zbekistonda "General Motors" korporatsiyasi bilan hamkorlikda dvigatellar ishlab chiqaradigan yangi qo'shma korxona tashkil

etilganini ham alohida ta'kidlash lozim. "General Motors Powertrain Uzbekistan" deb nomlangan yangi zavodda hozirgi kunda o'zimizning Asaka zavodida ishlab chiqarilayotgan avtomobillarga 1,2 va 1,5 litr xajmli dvigatellarni yetkazib bermoqda..

Toshkent viloyatining Zangiota tumanida barpo etilgan mazkur qo'shma korxona yiliga 360 mingta dvigatel ishlab chiqarish quvvatiga ega. Unda 1200 yangi ish o'rne tashkil etildi. Bu aholi bandligi darajasini oshirish bilan birga Asaka shahridagi zavodda avtomobillar ishlab chiqarishni yanada ko'paytirish uchun imkoniyat yaratdi.

Hozirgi zamon, taraqqiyot asri ishlab chiqarilayotgan avtomobil modellarini muttasil o'zgartirib, sifatini yaxshilab borishni taqozo etadi. Chunki kuchli raqobat sharoitida muayyan mamlakat bozoriga kirib borish, joy egallash va uni saqlab turish oson emas.

Shu ma'noda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mashinalarimizning xorijda o'z xaridorini topayotgani barchamizni quvontiradi. Bunga o'zbek avtomobillarining puxta, ishonchli va tejamkorligi, "Evro-2" Xalqaro ekologik standartlarga to'la javob berishi sababdir.

Hozir "GM Uzbekistan" AJ zavoddan chiqqan avtomobillar kirib bormagan mahalla, ovul, qishloq va ko'cha yo'q. Ilgari bir qishloqda bor-yo'g'i 2-3 ta avtoulov "qimirlab turgan" bo'lsa, hozir har besh oiladan birida zamonaviy avtomobil mavjud. Ular xalqimizning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilmoqda. Bu mamlakatimizning jadal taraqqiyotidan, xalqimiz farovonligi muttasil oshib borayotganidan dalolatdir.

Bularning barchasi Yurtboshimiz rahnomoligida izchillik bilan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yurtimizda qaror topgan bunyodkorlik, millatlararo do'stlik va totuvlik muhitining, tinchlik va osoyishtalikni saqlash yo'lidagi sa'y-harakatlarning amaldagi samaralaridir.

2. MAVZUNING DOLZARBLIGI

Har qanday mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga qaratilgan dasturni ro'yobga chiqarishda fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va kengaytirish, amaldagi ishlab chiqarishdan jadal foydalanish, boshqaruv tizimini, xo'jalik mexanizmini takomillashtirish asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish eng zarur vazifadir.

Yuksak darajada taraqqiy etgan hozirgi zamon transportisiz rivojlangan jamiyat asosini yaratib bo'lmaydi. Chunki avtotransport har qanday mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarning muhim tarkibiy qismidir. Mustaqil O'zbekistonimizda ham transport alohida muhim ahamiyatga ega – ham iqtisodiy, ham siyosiy sohalarda. Har tomonlama o'sib borayotgan texnika taraqqiyoti avtomobil transporti iqtisodiyotining chuqur o'rganishni taqoza etmoqda. Asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanish, birinchi navbatda harakatlanuvchi sostavlarni ishlatishning iqtisodiy samarasini oshirish avtomobil transporti korxonalarining asosiy vazifalaridan biridir. Shu bilan birga yangi texnikaga, ish jarayonlarini mexanizastiyalash va avtomatlashtirishga sarf qilinadigan kapital mablag'larning samaradorligini oshirish, ilg'or ish usullarini joriy etish ham muhim ahamiyatli bo'lib, avtomobil transporti iqtisodiyotining tarkibiy qismlardan hisoblanadi. Xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi, jumladan, avtomobil transportidagi taraqqiyot va ishlab chiqarish samaradorligi avvalo fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish va uning iqtisodiy natijalari, fan va texnika yangi yutuqlaridan foydalanishni jadallashtirish bilan bog'liqdir.

Fan-texnika taraqqiyoti – bu amaldagi ishlab chiqarish vositalarini va mehnat buyumlarini uzluksiz takomillashtirish, yangilarini yaratish hamda quvvatlarning yangi turlarini barpo etish texnologik jarayotlarni va ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir. Fan-texnika taraqqiyotining iqtisodiy va sostial ahamiyati shundan iboratki, u hozirgi fan va

texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda keng foydalanish hisobiga mehnat unumdorligini oshirishning asosiy omilidir.

Yangi texnika kishi mehnati unumdorligini ko'p marta oshirishi uzluksiz kamaytiradi va har bir ishlovchi boshiga mahsulot ishlab chiqarishni oshiradi. Avtomobil transportida mehnat unumdorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri harakatlanuvchi sostavlar ish unumini oshirishga qaratilgan texnika jihatdan qayta qurollantirishdir. Bunda tashishda ortish-tushirish ishlarini kompleks mexanizastiyalash, tashish jarayonini tashkil etish va boshqarishni ilg'or texnologiyalarini hamda iqtisodiy matematika, logistika usullari va axborot texnologiyalarni qo'llash hisobiga takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Yangi texnikani joriy etish va undan to'la foydalanish fond samaradorligini oshiradi va tashish texnologik jarayonini takomillashtirish hisobiga aylanma mablag'lardan samara bilan foydalanshiga yordam beradi, xom-ashyo (YoMM) va boshqa ishlab chiqarish materiallari sarflarini kamaytiradi. Yuqori samarali avtomobil, yarim tirkama, xom-ashyo va materiallar ishlatish, o'ta chidamli harakatlanuvchi sostavlar konstrukstiyasi va ularga texnika xizmati ko'rsatish, joriy tuzatishlarda takomillashtirilgan uskunalardan foydalanish, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish bularning hammasi birgalikda avtomobil transporti korxonasi ish natijalarini yaxshilash imkonini beradi. Yangi texnikalarni jalb qilish avtokorxonalarda qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish hisobiga sostial o'zgartirishlar kiritib, ishlovchilar kasbkorligi va umum-texnika-madaniy darajasini oshiradi va ularning ish vaqtini kamaytiradi.

Bugun O'zbekiston avtomobilsozlik sanoati zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan qator korxonalarni o'z ichiga oladi. Mahalliyashtirish dasturiga ko'ra, xorijnikidan aslo qolishmaydigan o'ta sifatli ehtiyot qismlar va nozik detallar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan turli yo'nalishdagi ko'plab qo'shma korxonalar tashkil etildi. Bamberlar, pribor panellari, o'rindiqlar, avtoemallar, germetiklar, avtomobil salonining ichki qoplash qismlari, glushitel, trubalar, balkalar ishlab chiqaradigan korxonalar shular jumlasidandir. "GM-Uzbekiston" qo'shma korxonasining

talablariga javob beradigan xususiy ishlab chiqaruvchilar esa turli xil boshqa ehtiyot qismlarni yetkazib bermoqda. Yurtimizda yengil avtomobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgach, ularga xizmat ko‘rsatuvchi keng tarmoqli butun bir infratuzilma yaratildi. Xususan, joylarda ochilgan jahon andozalari talablariga to‘liq javob beradigan, ilg‘or texnologiyalar bilan ta‘minlangan, avtomobillarga servis xizmati ko‘rsatuvchi ko‘plab shoxobchalar ishining yo‘lga qo‘yilgani yurtimizda bu soha jadal taraqqiy etayotganidan dalolatdir.

Endilikda milliy iqtisodiyotimizning turli yo‘nalishlarining tarkibiy qismlarni jaxon bozori bilan qiyosiy o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti – jami sohalar, assotsiatsiyalar, korxonalar, tashkilotlarning yig‘indisi bo‘lib, ular iqtisodiy tizimga umumiy qonunlar va rivojlanish maqsadlariga asoslangan holda birlashgan.

Ana shu fikrlarning davomi sifatida hozirgi zamon o‘titishning zamonaviy texnologiyalarini tashkil qilishda o‘quv laboratoriya xonalarini jihozlash va o‘quv stendlaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish dars sifatini oshirishga va talabalar bilimini mustaxkamlashga kerak bo‘ladi.

Men o‘zimning “Spark” avtomobilining yonilg‘i bakini yig‘ish texnologik jarayonini o‘rganish va tavsiyalar ishlab chiqish mavzusida bitiruv malakaviy ishimni O‘z SeMyung qo‘shma korxonasidagi avtomobil yoqilg‘i baklarini yig‘ish jarayonini o‘rganib chiqdim va shu asosda bitiruv malakaviy ishimni bajardim.

3. ADABIYOTLAR SHARXI

Ushbu bitiruv malakaviy ishimni yozishda Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari to'plamlaridan, o'zbek va rus olimlarining ilmiy adabiyotlaridan, gazeta va jurnallardan hamda internet ma'lumotlaridan keng foydalandim.

Avtomobillar detallari va ularni ishlab chiqaruvchi texnologik jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, ularning kundalik vazifalarini o'z vaqtida bajarilishi ularning ishlash davrini uzaytirilishini va uning ishonchliligini oshishini ta'minlaydi. Buning uchun yuqori sifat bilan ishlaydigan ta'mirlovchi va qayta tayyorlovchi korxonalar, shohobchalar va avtoservislar ichida avtomobillar qismlarini tayyorlaydigan bo'limlar barpo etish lozim.

Quyida eng asosiy adabiyotlar, ma'lumotlar hamda ulardan olingan ilmiy ma'lumotlar sharxi keltirilgan.

Karimov I.A. "Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eng avvalo "shok terapiyasi" deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'sha jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik [1]. Shubxa yo'q jahon moliyaviy inqirozining ta'sirini kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun bizda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda global inqirozning oqibatlarini, bugungi va ertangi kutiladigan ta'sirini hisobga olgan holda qat'iy, har tomonlama o'ylangan keng ko'lamli loyihalar bugun amalga oshirilmoqda [1].

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha xududiy dasturlarni tubdan qayta ko'rib chiqish va qishloq joylarda ularni aholi ayniqsa, yoshlarning bandligining, qishloqda xayot darajasini oshirishning muhim omili sifatida jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar ko'rish zarur [2-4].

Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida hozirgi kunda davlatimiz

rivojlanish bosqichlarini bosib o'tmoqda. Iqtisodiy ijtimoiy rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni tez fursatda imkon boricha yuqori darajalarga olib chiqishi kerak. Energetika, kommunikatsiya, transport va ishlab chiqarish tizimlari shular jumlasidandir [5].

Xamroqulov O., Magdiev Sh. "Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi" darsligida amaliy faoliyatidagi avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining holati, ya'ni avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash, texnologiyasi, hamda avtotransport korxonalarida ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologik jihozlar, harakatdagi tarkibga moddiy texnik ta'minotni tashkil qilish va resurslarni tejash usullari, avtomobil transportini turli ekstrimal tabiiy-iqlim va yo'l sharoitlaridagi, asosiy ishlab chiqarish bazalaridan ajralgan holdagi, hamda mahsuslashtirilgan harakatdagi tarkibning ekspluatatsiyasi, avtomobil transportining atrof muhitga zararli ta'sirining yo'nalishlari va ularni kamaytirish yo'llari keltirilgan [6].

Asatov E.A., Tojiboev A.A. "Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari" o'quv qo'llanmasida transport vositalarining texnik holati, ishlash qobiliyati, qismi va birikmalarning har xil omillar ta'sirida eskirishi, eyilishi haqida tushuncha paytida ularga sarflanadigan ehtiyot qismlar uchun me'yorlar keltirilgan [7].

Xo'jaev B.A. "Avtomobillarda yuk va passajir tashish asoslari". Mamlakatimizda turli avtomobil transport vositalari yordamida yuk va passajir tashish asoslari keltirilgan [8].

Xo'jaev B.A. "Yagona transport tizimi va har xil transportlar o'zaro yondashuvi". Darslikda respublikamizdagi barcha transport turlarining ahamiyati, ularning o'rni va istiqbollari, texnik-iqtisodiy xususiyatlari hamda ulardan maqsadga muvofiq foydalanish masalalari yoritilgan [9].

Qosimov G'.M. "Transport korxonalarida menejment". Darsligida ishchi joylarida oshib borayotgan raqobat, xizmat vazifasi bo'yicha siljish, yangi bilimlarni egallash, yangi malakalarni paydo bo'lishi ishbilarmonlarning ortib borishi, yirik korxonalarda yangi tafakkur va g'oyalarni paydo bo'lishi va shu kabilar menejment, menejer, marketing va boshqa iqtisodiy-muhandislar oldiga qo'ygan murakkab, dolzarb masalalar yoritilgan [10].

Xamraqulov O., Xamraqulov X., “Avtomobil detallari ishlash qobiliyatini qayta tiklash” o’quv qo’llanmasida avtomobillarni to’liq ta’mirlash jarayonida defektoskopiya asosida ajratilgan, ta’mirlanish kerak bo’lgan detallarni ishlash qobiliyatini tiklash uslublari va texnologiyalari hamda qo’llaniladigan jihozlar va materiallar bo’yicha ma’lumotlar mujassamlangan [11].

Fayzullaev E. va boshqalar “Transport vositasining tuzilishi va nazariyasi” darsligida avtomobil mexanizmi va tizimlarining vazifasi umumiy tuzilishi, ishlash printsiplari va turlari keltirilgan [12].

Qodirov S.M. “Ichki yonuv dvigatellari” darsligida avtomobil, traktor, qismlariga bog’liq va yo’l qurish mashinalarining IYoDda sodir bo’ladigan jarayonlarning nazariyasi hamda ularning ish tsikli, vaqti va yonilg’i sarfiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar tahlili jarayonlari ko’rsatilgan. Dvigatellarni sinash usullari hamda dvigatellarni tuzilishi keltirilgan [13].

Maxmudov G’.N. “Avtomobillarni elektr va elektron jihozlari” zamonaviy avtomobillarning elektr va elektron jihozlarini tuzilishi, ishlash printsiplari, ularda mumkin bo’lgan buzuvchiliklar hamda ularga TXK asoslari berilgan [14-16].

Gurin F.V., Klenikov V.D., Reyn V.V., “Avtomobilsozlik texnologiyasi”. Zavodlarda avtomobil ishlab chiqarish texnologiyasi asoslari va ularni qo’llash va takomillashtirish yo’llari berilgan [17].

Balbos M.M. “Основы технологический эксплуатации автотранспорта”. Avtomobillarni ekspluatatsiya qilish, ularga TXK va ta’mir ishlarini o’tkazish bo’yicha yo’riqnomalar berilgan [18].

Shestopalov S.K. “Устройство технического обслуживания и ремонт легковых автотранспортных средств”. YAngi avtomobillarning tuzilishi ularga TXK va remont ishlari bajarish texnologiyasi, zamonaviy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish bo’yicha ko’rsatmalar berilgan [19].

Yu.Qirg’izboev, Z.Inog’omova, T.Rixsiboev “Texnik chizmachilik kursi” darsligida chizmalar haqida umumiy ma’lumotlar, chiziqli turlari, shriftlarning yozilish tartiboti, masshtablar, chizmalarga qirgim berish usullari, burchak

shtamplarining ko'rinishi, chizmalarga o'lchamlar qo'yish usullari va shu kabi ma'lumotlar berilgan [20].

Babusenko S.M. "Traktor va avtomobillar remonti". Darslikda traktor va avtomobillarni ishlatish va remont qilish holatlarida ularning ishonchliligini belgilovchi omillar belgilangan.

Yo'ldoshev Sh.U. "Mashinalar ishonchliligi va ularni ta'mirlash asolari". Darslikda mashinalar detallarining eyilishi asoslari to'g'risida fikr yuritilib mashinalar ishonchliligi va ta'mirlash jarayonlari bayon etilgan.

G'.Yo.Yormatov, O.R.Yuldashev, A.L.Hamraev "Hayotiy faoliyati xavfsizligi" darsligida ob-havo sharoiti va inson faoliyati, ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti, sanoat korxonalarida shamollatish qurilmalariga qo'yiladigan asosiy talablar, changlangan havoni tozalash qurilmalari, shovqindan saqlanish, texnika vositalarida xavf-xatarlar va ulardan muhofazalanish, elektr xavfsizligi, mehnatni muxofaza qilish qonunlari va tashkiliy asoslari va yong'inni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlari to'risida kerakli ma'lumotlar berilgan [21].

Saidov D.M. Solid Edge V20 programma kompleksida avtomatik loyihalash asoslari. Ushbu darslikda mashinasozlikda va avtomobilsozlikda qo'llaniladigan detallar, uzellarning chizish ketma-ketliklari, detallarni bikiqlikka hisoblash usullari, chekli elementlar usulidan foydalanib detalni ishonchlikka baholash yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan [22].


O'quv adabiyotlardan tashqari internet ma'lumotlaridan ham keng foydalanildi [25-35].



4. ASOSIY QISM


“Uz-SaeMyung Co” qo’shma korxonasi aksionerlik jamiyati O’zbekiston-Koreya qo’shma korxonasi Janubiy Koreyaning “ERAE CS LIMITED” korxonasi va «O’ZAVTOSANOAT» aktsiyadorlik kompaniyasi o’rtasida imzolangan kelishuvdan so’ng 1998 yil may oyidan rasman o’z faoliyatini boshladi.

Qo’shma korxona “GM-O’zbekiston” YoAJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan Lacetti-Gentra, Cobalt, Matiz, Nexia va Spark rusumli zamonaviy avtomobillarini payvandlanuvchi-shtamp qismlari va yonilg’i baklari bilan ta’minlab berish uchun tashkil etilgan. Ushbu tashabbus orqali avtomobil detallari import xajmini qisqartirish va bu bilan davlat valyuta zaxirasini tejab qolish, shuningdek yangi ishchi o’rinlarini yaratish ko’zda tutilgan. O’zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar uchun kerakli butlovchi qismlarni maxalliy korxonalarda ishlab chiqarish bo’yicha maxalliylashtirish dasturi ham amalga oshirilgan. Ushbu korxonada hozirgi kunga kelib II smenada ish tashkil qilingan bo’lib, 1030 ga yaqin ishchi hodimlar ishlab kelmoqdalar.

Qo’shma korxonada Cobalt, Lasetti-Gentra, Spark, Damas va Matiz avtomobillari uchun payvandlanuvchi-shtamp qismlari ishlab chiqariladi (4.1-rasm).








4.1-rasm. Nexia, Matiz, Spark, Cobalt va Damas avtomobillarining payvandlanuvchi-shtamp qismlari

Qo'shma korxonada asosan Cobalt, Lasetti-Gentra, Spark, Damas va Matiz avtomobillari uchun yonilg'i baklari ishlab chiqariladi (4.2-rasm).



4.2-rasm. Qo'shma korxonada ishlab chiqarilayotgan yonilg'i baklari.

Qo'shma korxonaning ishlab chiqarish xajmi hozirgi kunga kelib 64000 ming \$ dan oshib ketdi. Buni quyida diagramma orqali ko'rishimiz mumkin.




4.3-rasm. Qo'shma korxonaning yillar bo'yicha ishlab chiqarish xajmi.

Qo'shma korxonasida payvandlash sexlari, presslash sexlari va yig'uv sexlari mavjud. Presslash sexida 35 tonnadan 600 tonnagacha bo'lgan sexlar mavjud.



4.4-rasm. Presslash dastgohlari.


Avtomobillarning yonilg'i baklarini tayyorlashda bosim bilan ishlash, payvandlash ishlari asosiy jarayonlar hisoblanadi. Yonilg'i baklarini shtamlash jarayonida katta kuch bilan ishlovchi presslardan foydalaniladi.



4.5-rasm. Yonilg'i bakini yig'uv sexi uchastkasi.

M300 Development Items List

IMPACT BEAM PARTS & LARGE PARTS



4.6-rasm. “Spark” avtomobilining shtamplanuvchi qismlari.

Yonilg‘i baki

Yonilg‘ini saqlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda avtomobilning 400...500 km yo‘l bosishiga yetadigan yonilg‘i saqlanadi. Yengil avtomobillarda yonilg‘i baki ko‘pincha kuzovning orqa qismida joylashadi, yuk avtomobillarida esa yon tomonidan ramaga o‘rnatiladi. Bakning idishi po‘lat tunukadan shtamlash usuli bilan oval yoki to‘g‘ri burchak shaklida yasaladi. Bakning mustahkamligini oshirish va yonilg‘ining kuchli chayqalishini kamaytirish maqsadida uning ichki bo‘shlig‘iga muvoziy ravishda to‘siqlar qoyilgan. Bakka yonilg‘i uning yuqori qismida joylashgan quyish quvuri orqali yuboriladi. Ko‘pincha so‘riladigan naychanning quyi qismiga to‘r filtr o‘rnatilgan, quyish quvurining bo‘g‘izi esa bug‘ havo klapani qopqog‘i bilan jips berkitiladi. Bu klapanlarning ishlash uslubi radiatorning bug‘ havo klapaniga o‘xshash bo‘lib, benzin bug‘larining bakdan tashqi muhitga ko‘tarilishiga yo‘l qo‘ymaydi hamda bakdagi yonilg‘i bosimini belgilangan holatda



Filtr-tindirgich cho‘yan krpus 8 va 14 dan iborat. Korpus qismiga ustinlar 7

Yonilg‘i nasosi.

Nasos harakatni taqsimlash valining ekssentrigidan olib, yonilg‘ini bakdan karbyuratorning qalqovichli bo‘linmasiga kichik bosim ostida 120...130 kПа (1,3 kgk/sm²) uzatib turadi. Nasos uchta ajraluvchi qismdan: korpus, kallak va qopqoqdan iborat, ular bir – biri bilan qistirma orqali vint bilan jips mahkamlanadi. Nasos ko‘pincha dvigatel blok – karterining yon devoriga bolt bilan mahkamlanib, koromislo 2 ning tashqi uchi taqsimlash valining ekssentri 1 ga tiraladi. Taqsimlash vali aylanganda, uning ekssentrigi ta‘sirida koromislo o‘z o‘qi 4 atrofida buriladi.

Nasos taqsimlash valining ketingi uchiga ishlangan ekssentrikdan harakatlanuvchi tirgak vositasida ishlaydi.

“GM-O‘zbekiston” zavodidan ishlab chiqarilayotgan avtomobillarda yonilg‘i nasoslari masalan: “Damas-B100”, “Damas-B150” avtomobilida alohida elektr yuritmalı yonilg‘i nasosi; “Tiko” avtomobilida diafragma turidagi yonilg‘i nasosi; “Nexia-Sohc va –Dohc”, “Lacetti” avtomobilarida dvigatelida elektr yuritmalı, markazdan qochma turdagi yonilg‘i nasosi qo‘llanilgan bo‘lib, u yonilg‘i bakida joylashgan.




4.8-rasm. SPARK avtomobilining yonilg‘i nasosi

Yonilg‘i filtrlari va tindirgichlar. Yonilg‘ini karbyuratorga kiritishdan oldin mexanik aralashmalar va suvdan tozalash zarur. Chunki yonilg‘i yaxshi tozalanmasligi oqibatida karbyuratorning qil teshiklari va tuynukchalari ifloslanib, uning aniq ishlashi yomonlashadi. Shuning uchun ta‘minlash tarmog‘idan o‘tayotgan yonilg‘i bir necha bor tozalanadi.

Simto‘rli filtrlar yonilg‘i bakining quyish quburiga, yonilg‘i nasosi korpusining qopqog‘iga va karbyuratorning qalqovichli bo‘linmasi shtuseriga o‘rnatiladi. Filtr – tindirgich yonilg‘i nasosiga yoki o‘zi o‘rnatilishi mumkin.

Yuk avtomobillarida karbyuratorga yuborilayotgan yonilg‘i, yonilg‘i baki va nasos oralig‘ida joylashgan filtr-tindirgich hamda nasos bilan karbyurator o‘rtasida o‘rnatilgan mayin filtrdan ketma – ket o‘tadi.



4.9-rasm. Yoqilg‘i bakini tashkil etivchi qismlari.

5. TEXNOLOGIK QISMI.

Yonilg'i baklarini ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarining payvandlash sexlaridagi har bir payvandlash postlari mustaqil ravishda zaruriy jixozlar bilan jixozlangan. Yoqilg'i boklarining yig'ish jarayoni texnologik jarayonning boshqaruv rejasi asosida amalga oshiriladi. Boshqaruv rejasi xar bir operatsiyalarni aniq nazarda tutgan xolda muhandislar tomonidan tuziladi. SPARK avtomobilining yonilg'i bokini yig'ish jarayoni quyidagi bosqichlarda yig'iladi:

I. yordamchi operatsiyalar (5.1-jadval);

II. yig'ish jarayoni (5.2-jadval).

I. Yordamchi operatsiyalar yig'ish jarayonidan oldin barcha detallarni holati, sifati va ishga yaroqliligi tekshirib olinadi. Bu jarayon 27 bosqichdan iborat bo'lib ularning 8 tasi korxonaning presslash sexida shtamplash ishlaridan so'ng tekshiriladi, 19 tasi ega yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan tekshirib jo'natiladi.

1-bakning yuqori qismini ko'zdan kechiriladi, korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo'qligi ko'z yordamida presslash sexlarida partiyadan 3 tasi tekshiriladi.

2-bakning pastki qismini ko'zdan kechiriladi, korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo'qligi ko'z yordamida presslash sexlarida partiyadan 3 tasi tekshiriladi.


3- bakning pastki qismiga maxkamlanadigan ximoya protektor ko'zdan kechiriladi, korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo'qligi ko'z yordamida presslash sexlarida partiyadan 3 tasi tekshiriladi.

4-bakning ichki qismiga yonilg'ini chayqalishini oldini oluvchi tindirgich ko'zdan kechiriladi, korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo'qligi ko'z yordamida presslash sexlarida partiyadan 3 tasi tekshiriladi.


Yonilg'i bakini yig'ish jarayonining boshqaruv rejasi

(5.1-jadval)

№	Detal	Tekshirish davomiyligi	Tekshirish joyi	Tekshirishning maqsadi
1		Partiyadan 3 dona	Presslash sexida	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo'qligi
2		Partiyadan 3 dona	Presslash sexida	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo'qligi
3		Partiyadan 3 dona	Presslash sexida	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo'qligi
4		Partiyadan 3 dona	Presslash sexida	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo'qligi

5		Partiyadan 3 dona	Presslash sexida	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo‘qligi
6		Partiyadan 3 dona	Presslash sexida	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo‘qligi
7		Partiyadan 3 dona	Presslash sexida	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo‘qligi
8		Partiyadan 3 dona	Presslash sexida	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yo‘qligi
9		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	korroziyaga qarshi qatlamning

				yeyilmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
10		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
11		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
12		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
13		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	Zarar yetmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
14		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	Zarar yetmaganligi,

				yoriklar yoʻqligi
15		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriklar yoʻqligi
16		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriklar yoʻqligi
17		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	korroziyaga qarshi qatlamning yeyilmaganligi, yoriklar yoʻqligi
18		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	Zarar yetmaganligi, yoriklar yoʻqligi

19		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	Zarar yetmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
20		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	Zarar yetmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
21		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	Ishqalanish, yeyilmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
22		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	Ishqalanish, yeyilmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
23		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	Ishqalanish, yeyilmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
24		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	Ishqalanish, yeyilmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
25		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	korroziyaga qarshi

				qatlamning yeyilmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
26		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	Ishqalanish, yeyilmaganligi, yoriqlar yoʻqligi
27		Partiyadan 3 dona	Yetkazib beruvchi korxona	Ishqalanish, yeyilmaganligi, yoriqlar yoʻqligi

Tekshiruv-tayyorgarlik ishlari nixoyasiga yetganidan soʻng yigʻish ishlari boshlanadi.

II. Yigʻish jarayoni . Yigʻish ishlari xam boshqaruv rejasiga asosan aniq xisob-kitoblar va meyorlar asosida quyidagicha olib boriladi.

- 1) yordamchi yigʻish;
- 2) asosiy yigʻish.

Yordamchi yigʻish 8 bosqichli, asosiy yigʻish jarayoni esa 16 bosqichli boʻladi.

- 1) yordamchi yigʻish jarayoni;

1. Yonilgʻi bakini boʻyash boʻyash ishlari oʻtkaziladi. Boʻyashda bakni ilgaklar bilan konveyerga joylashtirib boʻyash kamerasiga kiritiladi.

Detal	Jarayon	Sozlash ishlari	Tekshirish davri
	Bo'yash kamerasi	Bo'yoq markasi Acme Black(Spray), konveyer tezligi 2/2,5m/min, quritish temperaturasi esa 150±20 C	Partiyadan 5 dona

2.Bakning yuqori qismiga payvandlash yo'li bilan yonig'i quyish bo'g'zi payvandlanadi. Bunda elektr tok kuchi 99,8kA, xavo bosimi 0,37±0,05 Mpa, payvandlash vaqti 455ms bo'ladi. Operatsiya bajarilganidan so'ng uning xolati ko'z yordamida tekshirib qo'yiladi.

Detal	Jarayon	Sozlash ishlari	Tekshirish davri
	350kW Payvandlash jixozi	elektr tok kuchi 99,8kA, xavo bosimi 0,37±0,05 Mpa, payvandlash vaqti 455ms	Partiyadan 5 dona

3. Bakning yuqori qismiga payvandlash yo'li bilan xalqalar payvandlanadi. Bunda elektr tok kuchi 70,8kA, xavo bosimi 0,42±0,05 Mpa, payvandlash vaqti 300ms bo'ladi Operatsiya bajarilganidan so'ng uning xolati ko'z yordamida tekshirib qo'yiladi.


Detal	Jarayon	Sozlash ishlari	Tekshirish davri
	350kW Payvandlash jixozi	elektr tok kuchi 70,8kA, xavo bosimi 0,42±0,05 Mpa,	Partiyadan 5 dona

		payvandlash vaqti 300ms	
--	--	----------------------------	--


4. Bakning yuqori qismiga payvandlash yo'li bilan shamollatish trubkasi o'rnatiladi. Bunda elektr tok kuchi 70,3kA, xavo bosimi $0,35 \pm 0,05$ Mpa, payvandlash vaqti 300ms bo'ladi. Operatsiya bajarilganidan so'ng uning holati ko'z yordamida tekshirib qo'yiladi.

Detal	Jarayon	Sozlash ishlari	Tekshirish davri
	350kW Payvandlash jixozi	elektr tok kuchi 70,3kA, xavo bosimi $0,35 \pm 0,05$ Mpa, payvandlash vaqti 300ms	Partiyadan 5 dona


5. Yuqorida o'tkazilgan operatsiyalarni sifati tekshiriladi, undan keyin nuqtali payvandlash sexiga uztiladi.

Detal	Jarayon	Sozlash ishlari	Tekshirish davri
	Qo'l mexnati	Extiyotkorlik, xushyorlik	Partiyadan 5 dona

6. Nuqtali payvandlash sexida bokning yuqori qismiga payvandlash yo'li bilan breketlar payvandlanadi. Bunda elektr tok kuchi 8-11,5kA, xavo bosimi $0,4 \pm 0,05$ Mpa, payvandlash 1-12Hz, katta bosim vaqti 45Hz, shamollatish vaqti 10-Hz, TIP Ø 16mm (4-5,5mm) bo'ladi. Operatsiya maxsus jiglariga o'rnatilib o'tkaziladi. Operatsiya bajarilganidan so'ng uning xolati ko'z yordamida tekshirib qo'yiladi.

Detal	Jarayon	Sozlash ishlari	Tekshirish davri
	150kW Payvandlash jixozi	elektr tok kuchi 8-11,5kA, xavo bosimi $0,4 \pm 0,05$ Mpa, payvandlash 1- 12Hz, katta bosim vaqti 45Hz, shomollatish vaqti 10-Hz, TIP $\varnothing 16\text{mm}(4-5,5\text{mm})$	Partiyadan 5 dona

7. Bakning ichki qismiga chayqalishni so'ndiruvchi to'siqlar o'rnatiladi. To'siqlarni bakning ichiga 12 ta nuqtali payvand uriladi. Payvandlash rejimlari quyidagicha tanlanadi: elektr tok kuchi 8-11,5kA, xavo bosimi $0,4 \pm 0,05$ Mpa, payvandlash 1-12Hz, katta bosim vaqti 45Hz, shomollatish vaqti 3 Hz, TIP $\varnothing 16\text{mm}(5-6,5\text{mm})$ bo'ladi. Operatsiya maxsus jig'larga o'rnatilib o'tkaziladi. Operatsiya bajarilganidan so'ng uning xolati ko'z yordamida tekshirib qo'yiladi.

Detal	Jarayon	Sozlash ishlari	Tekshirish davri
	200kW Payvandlash jixozi	12 ta nuqtali payvand elektr tok kuchi 8- 11,5kA, xavo bosimi $0,4 \pm 0,05$	Partiyadan 5 dona

		Mpa, payvandlash 1- 12Hz, katta bosim vaqti 45Hz, shomollatish vaqti 3 Hz, TIP Ø 16mm(5-6,5mm)	
--	--	---	--

8. Bakning ustki va pastki qismlari yuvish kameralarida yuviladi. Yuvish kamerasida bokning qismlari $50^{\circ} \pm 5^{\circ}$ C. Yuvilgan qismlar ko'z yordamida tekshiriladi va keyingi payvandlash bosqichga uzatiladi.

Payvandlab yig'ish jarayoni 13 ta bosqichdan o'tkaziladi.

Nuqtali payvandlash kontaktli payvandlashning bir usuli bo'lib, bunda detallar chegaralangan alohida tegish joylari bo'yicha (nuqtalar qatori bo'yicha) payvandlanadi. Nuqtali payvandlashda detallar ustma-ust yig'ilib, elektr toki manbayi (masalan, payvandlash transformatori) ulangan elektrodlar yordamida F pay kuchi bilan siqiladi. qisqa muddati payvandlash toki Ipayo'tganda detallar ularning o'zaro erish zonasi paydo bo'lguncha qiziydi. Bu zona o'zak (yadro) deb ataladi. Payvandlash joyi (zonasi) qiziganda detallarning bir-biriga tegish joyida (o'zak atrofida) metall plastik deformatsiyalanadi. Bu joyda zichlovchi belbog' hosil bo'lib, u suyuq metallni chayqalib to'kilishdan va atrof havosidan ishonchli tarzda himoyalaydi. Shu bois payvandlash joyini maxsus himoyalash talab qilinmaydi. Nuqtali payvandlashda detallar 50 Hz sanoat chastotali o'zgaruvchan tok impulslari bilan, shuningdek o'zgarmas yoki unipolyar tok impulslari bilan qizdiriladi.

1. Bakning ikkala qismini nuqtali payvandlash yordamida birlashtiriladi. Bunda uning sifati tekshilib maxsus jig'larga o'rnatiladi va 6 ta belgilangan joyga nuqtali payvand uriladi. Payvandlash rejimi sozlanadi: elektr tok kuchi 8-11,5kA, xavo bosimi $0,4 \pm 0,05$ Mpa, payvandlash 1-12Hz, katta bosim vaqti 45Hz, shomollatish vaqti 3 Hz, TIP Ø 16mm(5-6,5mm) bo'ladi. Operatsiya maxsus jig'larga o'rnatilib

o'tkaziladi. Operatsiya bajarilganidan so'ng uning xolati ko'z yordamida tekshirib qo'yiladi va chokli payvandlash jixoziga uzatiladi.

